

# Termizda "ICEBERG" ko'ngilochar markazi ish boshladi

Image not found or type unknown



Termizda "ICEBERG" ko'ngilochar markazi ish boshladi

Termiz shahrida sunʼiy qoplamali muz maydoniga ega "ICEBERG" ko'ngilochar markazining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Prezidentimizning 2019 yil 17-18 oktyabr kuni Surxondaryo viloyatiga tashrifida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosi doirasida bunyod etilgan to'rt qavatli majmuada oilaviy va do'stlar bilan maroqli dam olish uchun barcha qulay sharoit yaratilgan.

Zamonaviy qiyofada bo'y ko'rsatgan salobatli ko'ngilochar markazda sun'iy qoplamali muz maydoni, supermarket, bank xizmati, 40 ga yaqin savdo do'koni, bolalar o'yingohi, restoran, Fast-fud taomlanish shahobchasi qurilib jihozlandi. Ko'ngilochar markazi "Termiz tezkor qurilish" ixtisoslashgan ta'mirlash-qurilish tashkiloti bunyodkorlari tomonidan yuksak did bilan sifatli barpo etildi.

- Bu yerda 300 ga yaqin ish o'rni yaratildi, - deydi "ICEBERG" ko'ngilochar markazi direktori X. Qodirov. - Eng ahamiyatli jihati shahar hokimligi tavsiyasi bilan "Yoshlar va ayollar daftari" ga kiritilgan yigitlar hamda xotin-qizlar ishga qabul qilindi. Endilikda ular toza, ozoda va ko'rkam markazda mehnat qilib, oilaviy byudjetlariga yaxshigina daromad olib borish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar, poytaxtdan kelgan san'atkorlar, xotin-qizlar va yoshlar ishtirok etgan tantanali tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz farovonligi va yurtimiz obodligi uchun xizmat qilayotganini, bu jarayonda sportni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi. Bunday ezgu yo'lda janubdagi vohada ham yirik hajmdagi qurilish-bunyodkorlik ishlari olib borilayotgani qayd etildi. Shahar markazidagi 4 ming 500 kvadrat metr maydonda qad rostlagan markazning birinchi qavatida figurali uchish, xokkey va boshqa sport o'yinlari uchun mo'ljallangan sun'iy qoplamali muz maydoni barpo etilib, Ispaniyada ishlab chiqarilgan jihozlar o'rnatilgan. 100 o'ringa ega tomosha zali qurilgan.

Shuningdek, to'rt qavatda joylashgan attraktsion, restoran, supermarket, savdo do'konlari, Fast-fud taomlanish shahobchasi va boshqa qo'shimcha yordamchi binolar bir yilda o'rtacha 60 ming aholiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan.

Tantanali marosim ishtirokchilari viloyat hokimi rahbarligida markazda yaratilgan sharoitlar va xizmat ko'rsatish shahobchalari faoliyati bilan tanishdi. Poytaxtdan kelgan san'atkorlar qiziqarli kontsert dasturini namoyish etdi.